TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

DAVLATOV ZOIRJON ZOKIRALIYEVICH

TURK TILIDA YORDAMCHI FE'LLAR VA ULARNING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)on philological sciences

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

DAVLATOV ZOIRJON ZOKIRALIYEVICH

TURK TILIDA YORDAMCHI FE'LLAR VA ULARNING O'ZBEK TILIDA
IFODALANISHI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3478 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shabanov Jumali Kazimovich** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Dadaboyev Xamidulla Aripovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Imamova Xolida Kamalovna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" noyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (108 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "11" noyabr dagi 108 raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

N.R.Ismatullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

X.Z.Alimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turk tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bir paytda, uning grammatik tizimini, xususan yordamchi fe'llar orqali ifodalanadigan nutq modellari va strukturalarini o'zbek tilida qiyosiy tahlil asosida o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, tarjimashunoslik, til o'rgatish va ikki tilli grammatik tahlil sohalarida bu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori. Shuningdek, turk va o'zbek tillari genetik jihatdan turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, ularning grammatik tizimidagi ayrim tafovutlar, ayniqsa yordamchi fe'llar va ularning ifodalanish uslublaridagi farqlar til qiyosiy tahliliga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Ushbu mavzuni chuqur ilmiy tadqiq qilish orqali ikki til orasidagi grammatik o'xshashlik va tafovutlarni aniq ko'rsatib berish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ilmiy asosda hal etish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida turkiy tillardagi yordamchi fe'llar masalasi grammatik, semantik va stilistik jihatlari bilan keng ko'lamda o'rganib kelinayotgan mavzulardan biridir. Dunyo tilshunoslari bu borada turli nuqtai nazarlar, metodologiyalar va yondashuvlar orqali mazkur fe'l turining xususiyatlarini ochib berishga harakat qilganlar. Ammo turk tilidagi yordamchi fe'llarning o'zbek tilida idodalanishi monografik planda tadqiq etilmagan.

Mamlakatimiz taraqqiyotining quyi bosqichida chet tillarni mukammal egallash o'z navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni yetishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijlik tilshunoslar, xususan, rus turkshunoslarining qator tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Bu yo'nalishda yaratilgan va nashr etilgan bir qancha monografiyalar, ilmiy ishlar mavjud. Xususan, turk tili leksikalogiyasi masalalari ham ayrim maxsus tadqiqotlarning o'rganish obyekti bo'lgan. Keyingi paytlarda o'zbek va turk tillarining leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini qiyoslab tadqiq etish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan, xususan, turk tilida ayrim fe'llarning leksik-semantik belgilari o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyosiy aspektda o'rganilgan. Biroq bu yo'nalishda hali ham o'z yechimini topmagan, maxsus tadqiq etilmagan masalalar oz emas. Turk tilidagi yordamchi fe'llarning leksik-semantik ma'no ko'lami, grammatik xususiyatlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son, 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti

to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi muammolari, xususan, fe'l turlari, yasalishi va grammatik kategoriyalari haqidagi muhim ma'lumotlar birinchi bor A. Kononov, A. G'ulomov, M. Askarova, A. Hojiyev, Sh. Shukurov, G'. Abdurahmonov, Q. Mahmudov[1] kabi mashhur olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, bu ilmiy ishlar fe'l nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan. Fe'llarning ayrim semantik turlari, ularning valentlik xususiyatlari va semantik jihatlari I. Kuchkarto'yev, R. Rasulov, S. Muhamedova, M. Abuzalova kabi olimlarning doktorlik dissertatsiyalarida[2], shuningdek, T. Musayev, U. Sharipova, Z. Siddiqov, D. Abdullayeva, G. Narimova, G. Isakova va Sh. Karimjonova kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarida o'rganilgan[3].

Turk tilshunosligida fe'llar harakat-holat bildiruvchi so'zlarning grammatik kategoriyalari, fe'llarning vazifadosh shakllari mukammal, atroflicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, yordamchi fe'llar, ularning turlari, mazkur fe'llarga xos semantik-leksik, funksional xossalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi maxsus o'rganilmagan. Odatda, turk tilidagi qo'shma fe'llar haqida so'z ketgandagina, yordamchi fe'llar qayd etib o'tiladi. Ayni yordamchi fe'llar vositasida anglashiladigan mazmunlar asosida qo'shma fe'llarning turlari farqlanadi. Masalan, M. Ergin fe'llarni ma'nosiga binoan tasniflamaydi[4]. T.Banguo'g'lu o'timli va o'timsiz fe'llarni harakat-holat ma'nosini bildiruvchi so'zlarning ma'no turlari deb e'tirof etadi. Shu bilan birga, *olmak/bo'lmoq* yordamchi fe'lining *–miş* shaklli o'tgan zamon, *-r, -maz* shakli hozirgi-kelasi zamon, *-ecek* affiksli shakli kelasi zamon fe'llari bilan qo'llanishidan hosil bo'ladigan fe'l shakllari murakkab fe'llar (karmaşık fiiller) nomi ostida o'rganiladi.

---

[1] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.; Л.: АН СССР, 1960. – 446 с; Ғуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – 196 б; Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Т.: Фан, 1966. – 223 б; Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майиллари тараққиёти. – Т.: Фан, 1980. – 144 б; Abdurahmonov G'., Sh.Shukurov., Q.Mahmudov. O'zbek tilining tarixy grammatikasi.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 528 b; Абдураҳмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1996. – 324 б.

[2] Кўчкартоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги: – Филол.фан.номз. дисс. – Т., 1977. – 144.с; Расулов Р. Ўзбек тилида холат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент, 1989, – 131 б; Мухамедова С. Ўзбек тилида йўналма харакат феълларининг предикативлиги ва валентлик: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1999. – 22 б; Abuzalova M. Substantsial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma: Filol.fan.dok.diss. avtoref. – Buxoro., 2018. – 41 b.

[3] Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол.фан. номз.дисс.автореф. – Тошкент, 1992. – 145 б; Шарипова У. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно-валентликлари: Филол.фан. номз.дисс. – Тошкент, 1996. – 152 б; Сиддиков З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол.фан. номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б; Абдуллаева Д. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли қурилмалар: Филол.фан. номз.дисс.автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 22 б; Наримова Г.А. Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи: Филол.фан. номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2005; Исакова Г. Ўзбек тилидаги "қилмоқ" феълининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фан. номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2009; Karimjonova Sh. O'zbek va ingliz tillarida kauzativ fe'llar tadqiqi: Filol.fan.nomz.diss.aavtoref. – F, 2024.

[4] Ergin.M. Türk Dili Bilgisi. – İstanbul: Bayrak, 1993. – S. 214.

Vazifasiga koʻra, oʻzbek tilidagi koʻmakchi feʼllarga muvofiq keluvchi feʼllar tasvir feʼllari deb ataladi[5]. Bunda *bilmek/bilmoq* koʻmakchi feʼli vositasida hosil qilingan biriktiruv imkoniyat feʼli (yeterlik fiili), *vermek/bermoq* koʻmakchisi ishtirokidagi biriktiruv surʼatlilik feʼli (ivedilik fiili), *kalmal/qolmoq, görmek/koʻrmoq, gelmek/kelmoq,* *durmak/toʻxtamoq* feʼllari yordamida hosil qilingan birikuvlar davomlilik feʼllari (sürek fiili), *yazmak/yozmoq* koʻmakchi bilan yuzaga kelgan birikuv feʼllari yaqinlashuv feʼllari (yaklaşma fiili), degan fikr ilgari suriladi. Shuningdek, *atıp tutmak, keşıp kavırmak, gidip gelmek* kabi qoʻshma feʼllar yarim tasvir feʼllari (yarı tasvir fiilleri) hisoblanadi. N.Atabay, I.Kutluk, C.Özelning turk tili morfologiyasiga bagʻishlangan maxsus tadqiqotida yordamchi feʼllar masalasi tahlil qilingan, bunda *etmek-etmoq, eylemek-aylamoq, kılmak-qilmoq, olmak-boʻlmoq* leksemalari yordamchi feʼllar sirasiga kiritilgan. Xususan, toʻliqsiz feʼllarni ham alohida guruh sifatida yordamchi feʼllar deb hisoblash mumkin, degan xulosaga kelingan[6]. Ayni paytda tilshunoslar qayd etilgan yordamchi feʼllardan tashqari *bilmek-bilmoq, vermek-bermoq, kalmak-qolmoq, durmak-toʻxtamoq* kabi feʼllar ham yordamchi feʼllar vazifasida kelishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surishadi.

Hacıeminoğlu turk tilidagi feʼllarning tuzilishiga koʻra turlarini tadqiq etar ekan, harakat-holat semali leksemalarni quyidagi tartibda tasniflashni maʼqul koʻradi: 1) Tuzilishiga koʻra: tub feʼllar, yasama feʼllar, qoʻshma feʼllar. 2) Maʼnosiga koʻra: harakat maʼnosini bildiruvchi feʼllar; ish maʼnosini anglatuvchi feʼllar; holat bildiruvchi feʼllar; mavjudlik maʼnosini bildiruvchi feʼllar. 3) Holatlariga koʻra: asl feʼllar; yordamchi feʼllar. 4) Qoʻllanilishiga koʻra: tuslangan feʼl; masdar; harakat nomi; sifatdosh; ravishdosh. 5) Ega bilan munosabatiga koʻra: aniq nisbatdagi feʼl, orttirma nisbatdagi feʼl; majhul nisbatdagi feʼl; birgalik nisbatdagi feʼl. 6) Vositasiz toʻldiruvchi bilan munosabatiga koʻra: oʻtimli feʼllar; oʻtimsiz feʼllar; qaytishlik feʼli. 7) Mohiyatiga koʻra: boʻlishli feʼllar; boʻlishsiz feʼllar; iqtidor feʼllari. Demak, bu holda ham feʼllarning semantik tiplari yordamchi feʼllar mavjudligini eʼtirof etadi. Tadqiqotning asosiy qismi tub va yasama feʼllar tadqiqiga qaratilgan[7].

R. Toparli turk tilidagi feʼllar, feʼllarning tuzilishiga koʻra turlari, shuningdek, feʼlning tuslanishiga oid toʻliq maʼlumot beradi. Bunda feʼllar tuzilishiga muvofiq uch guruhga boʻlinadi: tub feʼllar, yasama feʼllar, qoʻshma feʼllar. Qoʻshma feʼllarga quyidagi tarkibli feʼllar kiritiladi: a) ot va yordamchi feʼldan tashkil topgan qoʻshma feʼllar. Bunda *et, eyle, ol, kıl* yordamchi feʼllar ishtiroki koʻzda tutiladi: *yardım et, dua eyle, kerem kıl;* b) ikki feʼlning ravishdosh orqali birikishidan hosil boʻlgan yordamchi feʼllar: *yapabil-qila ol, okuyabil-oʻqiy ol, gidebil-keta ol.* Bu guruh feʼllari oʻz ichida yana uch guruhda tasniflanadi: a) tezlik maʼnosini bildiruvchi qoʻshma feʼllar *ver-ber* feʼli orqali yasaladi: *geliver, okuyuver;* b) davomlilik maʼnosini bildiruvchi qoʻshma feʼllar *kal-qol, gel-kel, dur-toʻxta* feʼllari orqali shakllantiriladi: *bakakalmak-qarab qolmoq, yazadurmak-yozib turmoq* c) yaqinlashuv mazmunini tashuvchi qoʻshma feʼllar *yasmak-yozmoq* feʼli orqali hosil qilinadi: *düşeyazmak-yiqilayozmoq*[8]. Lekin bunda ayni feʼl shakllari qayd etiladi, mazkur qoʻshma feʼllarni yuzaga keltiruvchi qoʻshma feʼllar tahlil etilmaydi.

[5] Banguoğlu.T. Türkçenin grameri. – Ankara, 1990. – S. 408-486, 488-493.
[6] Atabay N, Kutluk İ, Özel S. Sözcük Türleri. – Ankara: Olgaç Basımevi, 1983. – S. 254-261.
[7] Hacıeminoğlu. Türk dilinde yapı bakımından fiiller. – İstanbul: Bilge Kültür Sanat yayınları, 2016. – S. 78-79.
[8] Toparlı R. Türk Dili. – Ankara, 1988. – S. 50-68.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Turk tilining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turk tilidagi yordamchi fe'llar semantik turlarining spetsifik xususiyatlarini va o'zbek tilida ifodalanishini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot maqsadi yo'lida quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

turk tilshunosligidagi yordamchi fe'llarning ma'no turlariga oid nazariy qarashlarni tadqiq etish, ularga munosabat bildirish;

turk tilidagi yordamchi fe'llarning yangi semantik tasnifini amalga oshirish;

yordamchi, ko'makchi va to'liqsiz fe'llar guruhiga kiruvchi fe'l-leksemalar doirasini chegaralash, ularning semalari tizimi, qo'llanilish doirasini aniqlash;

tadqiqot obyekti sifatida belgilangan fe'l-leksemalarning shakliy-vazifaviy va ma'noviy-uslubiy xususiyatlarini ochiqlash.

Tadqiqotning obyekti. Hozirgi turk tilidagi ashyoviy materiallar (Güntekin R.N. "Çalıkuşu", "Bir Kadın Düşmanı", Edip-Adıvar H. "Kalp Ağrısı", Karay R.H. "Nilgün", "Memleket Hikayeleri")dagi yordamchi fe'llar tadqiqotning obyektini tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi turk tilidagi yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, sintez, tizimli va komponent tahlil, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tipologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'plangan ashyoviy materiallar va turkiy tillardagi yordamchi fe'llar haqida ilgari surilgan ilmiy qarashlar tahlili asosida turk tilidagi yordamchi fe'llarning yangi semantik tasnifi ishlab chiqilgan;

yordamchi fe'l vazifasida qo'llaniluvchi fe'l-leksemalarning semantik va grammatik tabiatiga tahliliy yondashilib, ularning o'zbek tilida funksional-morfologik ifodalanish mexanizmlari aniqlangan;

yordamchi fe'llarning semalar tizimidagi ma'no nozikliklari matnlar misolida faktik materiallar asosida dalillanib, ularning kontekstual voqelanish xususiyatlari lingvopragmatik nuqtai nazardan izohlangan;

tadqiqot jarayonida turk tilidagi yordamchi fe'llarning son jihatdan boshqa turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga nisbatan ancha kamligi aniqlanib, bu holatning tarixiy, tipologik va grammatik sabablari hamda shakllanish omillari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turk va o'zbek tillaridagi yordamchi fe'llar komparativistik aspektda tahlil qilingan;

tadqiqotda turk tilidagi yordamchi fe'llar qiyosiy o'rganilib, yaxlit ilmiy tizimga solingan;

turk tilidagi yordamchi fe'llarning o'zbek tilidagi ifodalari asoslab berilgan;

obyekt sifatida olingan turk tilidagi badiiy asarlar tahlili va tarjimasi natijasida turk tilidagi yordamchi fe'llarning ma'no ko'lami yoritilib, ularning bir necha ma'no anglatishi dalillab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammolarning ilmiy va badiiy manbalardan olingan metodlar, yondashuvlar va ma'lumotlardan foydalanishda, turk adiblarining nasriy asarlarini qiyosiy-tipologik, sintez metodlar vositasida tahlil

8

qilinganligi, tadqiqot natijasidagi xulosa hamda takliflar amaliyotga tadbiq etilgani, tadqiqot natijalarining xorijiy va respublika jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar va tegishli tashkilotlardan olingan dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilgari qiyosiy tahlilga tortilmagan turk va o'zbek tilidagi yordamchi fe'llar komparativistik aspektda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari turk tilining nazariy grammatikasini yaratishda muhim ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi. Shuningdek, tadqiqotdagi ashyoviy materiallardan turk tilining izohli lug'atini tuzishda foydalanish mumkin;

Tadqiqot turkshunoslik yo'nalishi bo'yicha bakalavr hamda magistraturada ta'lim olayotgan talabalarga "Turk tili" fanining "Fe'lning semantik tiplari. Yordamchi fe'llar" bo'limi yoki "Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi" fanini o'qitishda kerakli material xizmatini o'tashi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turk tilida yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishidan Turkiyaning O'zbekistondagi "Turkiya madaniyat markazi" ning ma'ruza materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (Turkiyaning O'zbekistondagi "Turk milliy madaniy markazi" ning 2023-yil 10-oktabrdagi 19-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tadqiqotdan olingan ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalar o'quv jarayonida samarali qo'llanilib, talabalar va tinglovchilarning turk tilining grammatik-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglashlariga yordam berdi. Shuningdek, materiallarning amaliy tatbiqi til o'rgatish samaradorligini oshirdi va madaniy-ma'rifiy faoliyatda qo'shimcha ilmiy manba sifatida xizmat qilgan;

turk tilidagi yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi bilan bog'liq ilmiy tushunchalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Til, ta'lim, tarjima va konsalting markazi tomonidan turk tilini bilishga qaratilgan yozma va og'zaki kompetensiyalarni aniqlash uchun (B1, B2, C1 daraja imtihonlarida) berilgan topshiriq savollarini tuzish va shakllantirishda hamda o'quv qo'llanmalarini yaratishda qo'llanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Til, ta'lim, tarjima va konsalting markazining 2023-yil 9-oktabrdagi 03-03-01/1942-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv jarayonida zamonaviy yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar til o'rganuvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qildi, dars jarayonining interfaolligi oshdi. Shuningdek, yaratilgan o'quv qo'llanmalar amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qilish malakalarini shakllantirishga yordam bergan;

turk tilida yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi xususidagi ilmiy izlanishlar va ashyoviy ma'lumotlar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Foreign Languages" telekanalining "Good morning Uzbekistan!" va "Hasbihal" ko'rsatuvlarining senariylarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasining 2023-yil 25-sentabrdagi 01-05-1443-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, televizion dasturlar til va uslub jihatdan yanada boyidi, muloqot madaniyatining nozik qirralari yoritildi hamda turk va o'zbek tillaridagi lingvistik o'xshashliklar ommaga sodda va tushunarli tarzda yetkazildi. Bu esa ko'rsatuvlarning ilmiy-uslubiy asoslangan holda tayyorlanishiga, tomoshabinlarda tilga va madaniyatga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari muallifning 4 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyadagi chiqishlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 5 ta, xususan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **"Yordamchi fe'llar tadqiqining nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida o'zbek va turk tillarida yordamchi fe'llarga oid tadqiqotlar tahlili, *olmak* – "bo'lmoq" leksemasining mavjudlik semasini shakllantiruvchi fe'l sifatidagi xususiyatlari, holatni harakat tarzida reallashtiruvchi yordamchi fe'llar, yordamchi fe'l vazifasida qo'llaniluvchi fe'l-leksemalar haqida so'z yuritiladi.

Ushbu bobning birinchi fasli *"O'zbek va turk tillarida yordamchi fe'llarga oid tadqiqotlar tahlili"* deb nomlanib, unda o'zbek va turk tillarida fe'l, uning leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra tasnifi, yordamchi va ko'makchi fe'llarning tuzilishi va ma'no ko'lami, har ikki tildagi yordamchi fe'llarning o'xshash va farqli jihatlari tahlilga tortilgan.

A. Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da yordamchi fe'llar xususida quyidagicha izoh beriladi: Yordamchi vazifasida qo'llanib, qo'shma fe'l hosil qilish, fe'lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi, shuningdek bog'lama vazifasini bajaruvchi fe'llar. Ular o'z vazifasiga ko'ra 3 turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l hosil qiluvchi yordamchi fe'llar: *qil, ayla, et, bo'l: qabul qilmoq, ruxsat etmoq* kabi; 2) fe'lning analitik shaklini hosil qiluvchi yordamchi fe'llar (bular odatda ko'makchi fe'llar deb yuritiladi): *boshla, chiq, yubor* va b: *kela boshladi, o'qib chiqdim, so'rab ko'r, yiqitib yubordi* kabi; 3) bog'lama vazifasini bajaruvchi ko'makchi fe'llar. Mas., *bo'l: injener bo'lmoq*[9].

Fe'lning analitik shaklini hosil qiluvchi yordamchi fe'llar odatda ko'makchi fe'llar deb yuritiladi[10]. O'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan (mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llanadigan) birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, bit (bitir),*

---

[9] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2002. – Б. 38-39.

[10] Ko'rsatilgan asar. – B. 38.

ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, yet, ko'r, qara, boq, yoz[11]. Demak, mustaqil ma'no ifodalash bilan birgalikda ko'makchi fe'lga aylangan faol fe'l-leksemalar soni o'ttizga yaqin. Shuningdek, mazkur faslda o'zbek tilshunosligida A. G'ulomov, A. Hojiyev, M. Mirtojiyev, A. Madvaliyev kabi olimlarning yordamchi fe'llar mavzusiga oid ishlari o'rganilib, tahlil etilgan[12].

Z. Xudoyberganova va X. Hamidov turk tilida fe'llarni leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil fe'llar va yordamchi fe'llar kabi ikki guruhga bo'lib o'rganadilar[13]. T. Necatning tasnifiga ko'ra, turk tilida ko'makchi fe'llar soni o'n bitta bo'lib, ular turk tilida qo'shma fe'llarni yasashga xizmat qiladi. Arxaik yordamchi fe'llar (*kılmak, eylemek*) esa ko'proq badiiy asarlarda uchraydi[14]. Turk tilshunosligida yordamchi fe'llar bo'yicha M. Ergin, H. Hengirmen, A. Banguog'lu, G. Gencan va T. Boz tomonidan qator nazariy izlanishlar olib borilgan[15]16. Ular yordamchi fe'llarni otlashgan fe'llar, modal fe'llar, harakat holatini bildiruvchi fe'llar kabi toifalarga ajratganlar. S. Alibekiroğluga ko'ra turk tilida fe'llar tuzilishi, ma'nosi va vazifasiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: Tuzilishiga ko'ra: a) sodda; b) yasama; c) qo'shma; Ma'no va vazifasiga ko'ra: a) mustaqil fe'llar; b) yordamchi fe'llar; c) gavhar fe'llar[17].

Turkshunoslikda fe'llar, fe'llarning zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik kategoriyalari batafsil tadqiq etilgani holda, keng ma'noda ot yoki fe'llarga birikib kelib qo'shimcha ma'no nozikliklarini yuklovchi fe'l-leksemalar, ya'ni yordamchi fe'llarning alohida morfologik hodisa sifatida tadqiq etilmagani kuzatiladi. Nisbatan avvalgi ishlarda (M.Ergin) fe'llarning yordamchi turlariga kiruvchi leksemalar umuman diqqatdan chetda qolgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda (T.Banguo'g'lu) keng ma'modagi ot ishtirokida keluvchi ayrim fe'l-leksemalar hamda qo'shma fe'llar ajratilganini ko'ramiz. N.Atabay, I.Kutluk, S.Özel, R.Goporli, M.Hengirmen kabi tilshunoslar keng ma'nodagi ot yoki yetakchi fe'llar bilan qo'llaniluvchi leksemalarni qo'shma fe'l sifatida farqlashgan bo'lsalar-da, turk tilidagi yordamchi fe'llar guruhini tashkil etuvchi leksemalar maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli *"Olmak – bo'lmoq leksemasi mavjudlik semasini shakllantiruvchi fe'l sifatida"* deb nomlanadi. Ushbu faslda *olmak* yordamchi fe'li vositasida hosil qilinuvchi fe'l shakllari, *olmak* fe'lining ot, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z, olmosh kabi so'z turkumlari bilan birikib, yordamchi fe'l vazifasini bajarishi va qo'shma fe'lni yuzaga keltirishi mumkinligi tahliliga bag'ishlangan.

---

[11] Ҳожиев А. Феъл. – Т.: Фан, 1973. – Б. 14-15.

[12] Ғуломов А. Феъл. – Т.: Фан, 1954. – 88 б; Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феълллар. – Т.: Фан, 1966. – 223 б; Феъл. – Т.: Фан, 1973. – 192 б; Mirtojiyev M. Kechim ifodalagan kesim obyektining ega vazifasini o'tashi // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2003. – 51-55 b; Sema tushunchasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2008. – 64-68 b; Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T., O'zbekisoton milliy ensiklopediyasi, 2017. – 117 b.

[13] Xudoyberganova Z, Hamidov X. Turk tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2015. – B. 70-76.

[14] Necat T. Dilbilgisi: Türkçe'nin Grameri. – Ankara.: Ayraç Yayınevi, 1979. – S. 306-309.

[15] Ergin M. Türk Dili Bilgisi. – İstanbul: Bayrak, 1993. – 384 s; Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. – Ankara: Tömer Yayınları, 1997. – 288 s; Banguoğlu T. Türkçenin Grameri. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, yeni baskı, 1998. – 364 s; Gencan G. Türk Grameri (Şekil Bilgisi). – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2001. – 512 s; Boz T. Türkçede Yardımcı Fiiller ve Fiil Grupları. Doktora Tezi. – İstanbul: Turkish Studies, 2004. – 340 s.

[16] Ergin M. Türk Dili Bilgisi. – İstanbul: Bayrak, 1993. – 384 s; Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. – Ankara: Tömer Yayınları, 1997. – 288 s; Banguoğlu T. Türkçenin Grameri. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, yeni baskı, 1998. – 364 s; Gencan G. Türk Grameri (Şekil Bilgisi). – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2001. – 512 s; Boz T. Türkçede Yardımcı Fiiller ve Fiil Grupları. Doktora Tezi. – İstanbul: Turkish Studies, 2004. – 340 s.

[17] Alibekiroğlu S. Çağdaş türk lehçelerinde yardımcı fiiler: – Doktora Tezisi. – Elazığ., 2014. – S.151-152.

Ashyoviy materiallar tahlili *olmak* yordamchi fe'lining turli so'z va so'z birikmalari bilan qo'shilib, quyidagi 42 ma'noda ishlatilishi mumkinligini ko'rsatdi: 1) O'zi bog'lanib kelgan so'zdan anglashilgan ish-harakatning amalga oshirilishi yoki bajarilishi; 2) "yetishtirmoq", "yetilmoq", "o'stirmoq"; 3) "tayyorlanmoq", "tayyor holga kelmoq"; 4) "mavjud bo'lmoq", "bor bo'lmoq"; 5) "biron-bir joyga bormoq", "joylashmoq"; 6) "mos tushmoq", "mutanosib bo'lmoq"; 7) "biron narsaning birov mulki bo'lmoq, birovga tegishli bo'lmoq"; 8) "yaqinlashmoq", "boshlanmoq"; 9) "biror belgi, xususiyatga ega bo'lmoq, egalik"; 10) "biror narsaga, holatga, joyga egalik, sohiblik qilmoq"; 11) "bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tmoq"; 12) "aylanmoq" (oltinga, tuproqga); 13) "loyiq bo'lmoq", "roppa-rosa kelmoq"; 14) "yo'qotmoq", "qo'ldan chiqarmoq"; 15) "ma'lum bir holatda, vaziyatda bo'lmoq"; 16) "yoshga to'lmoq", "biron yoshga kirmoq"; 17) "biror-bir darajaga, lavozimga, unvonga erishmoq"; 18) "muayyan guruh, yo'nalish, e'tiqod, tariqat va shu kabilarga xos bo'lmoq, oid, tegishli bo'lmoq"; 19) "biror joyda tug'ilmoq, yashamoq"; 20) "kasallikka chalinmoq", "xastalanmoq"; 21) "oidlik", "tegishlilik"; 22) "ro'y bermoq", "yuz bermoq"; 23) "uylanish", "turmush qurish", "to'y" so'zlari ishtirokida kelganda "turmush qurmoq"; 24) "ma'lum bir joyga borib joylashmoq, bormoq, egallamoq"; 25) "zamon, vaqt, muddat, payt" ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan birikib, "o'tmoq", "nihoyalanmoq", "tugallanmoq"; 26) – *dir* bog'lamasiga teng ma'noda; 27) "rad, inkor qilmoq" (bo'lishsizlik ko'rsatkichini olsa), "qabul qilmoq", "tasdiqlamoq" (bo'lishsizlik ko'rsatkichini olmasa); 28) *olan biten, olup biten* qoliplashgan qo'shma fe'l shaklida, turg'un birikma holida kelganda "yuzaga chiqqan hodisa, holat yoki har bir narsa"; 29) *ne* "nima" olmoshi bilan ishlatilganda, muayyan aloqaning mavjudligini aniqlash yoki hech qanday aloqa yo'qligini qayd etish; 30) nutq onida natija sifatida hosil bo'lgan, yuzaga kelgan holat, vaziyat; 31) "boshlanmoq"; 32) – *arak* ravishdosh yasovchisini olgan shakli (*olarak*) "sifatida", "tarzida"; 33) takroriy qo'llangan, shart maylidagi *olmak* fe'li "nihoyat", "nihoyati bilan", "oxirgi ehtimol sifatida"; 34) "nutq onida ayni belgi, xossa, xususiyatga erishganlik, egalik"; 35) *hazin* – "qayg'uli", *yalancı* – "yolg'onchi" sifatlari bilan kelgan *olmak* fe'li ma'lum bir shaxs, narsaning shu belgisi mavjudligini ifodalaydi; 36) "biron-bir ishni amalga oshirilishi, ro'yobga chiqarilishi"; 37) "kimdir bo'lmoq", "qandaydir shaxs darajasiga yetmoq"; 38) "bo'ysunmoq", "faoliyat ko'rsatmoq"; 39) bo'lishsiz shaklda "ega emaslik", "sohib bo'lmaganlik"; 40) takroriy qo'llanganda, u bog'lanib kelgan so'zning tushirib qoldirilishi; 41) "narsa-buyum yoki shaxsga tegishlilik"; 42) – *acak*, – *mış*, – *ıcı*, – *ır*, – *maz* qo'shimchali sifatdoshlar ishtirokida faol qo'llanib, "nutq onidan so'ng amalga oshirilishi rejalashtirilgan, maqsad qilingan ish-harakat", "biron ish-harakatning yuzaga chiqish-chiqmasligiga taxmin", "nutq onida natija, vaziyat, holat sifatida mavjud bo'lganlik", "bajarilishi nutq onidan avval boshlangan va so'zlanayotgan vaqtda tugallanmagan ish-harakat", "nutq onidan avval ro'y berishi boshlangan, odatiy tus olgan harakat, holat", "gapirilayotgan paytdan oldin doimiy ravishda amalga oshirilgan, nutq onidan boshlab bajarilmaydigan harakat, holat", "ish-harakat, holatning bundan keyin bajarilmasligi qat'iy ekanligi", o'tgan zamonda bajarish, ro'yobga chiqarish maqsad qilingan, istalgan ish-harakat" ma'nolari.

Olmak – "bo'lmoq" leksemasining yuqorida qayd etilgan ba'zi ma'nolarini manbalardan to'plangan quyidagi misollarda kuzatamiz: *Üzümler daha olmadı* (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Uzumlar hali **yetilmadi** (pishmadi). – *Çay oldu!* (R.H.K. "Memleket Hikayeleri") – Choy **tayyor**! Bu şapka başıma *oluyur* (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Bu shapka boshimga *to'g'ri kelyapti*. Peki, şu

12

Kızıldeniz-iki kıyısı ile bizim olmuştu değil mi? (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Yaxshi shu Qizil dengiz – ikki qirg'og'i bilan bizniki edi, shunday emasmi?

Birinchi bobning uchinchi fasli *"Holatni harakat tarzida reallashtiruvchi yordamchi fe'llar (etmek, kılmak, eylemek)"* deb nomlanib, *etmek, kılmak, eylemek* yordamchi fe'llarining tahliliga bag'ishlangan. *Etmek* fe'li turk tilidagi faol yordamchi fe'llardan biri hisoblanadi. Bu yordamchi fe'l ot turkumiga kiruvchi so'zlar ishtirokida keladi va qo'shma fe'llarni hosil qiladi[18]. Yakka o'zi ham qo'llanilishi mukin bo'lgan bu so'z ko'pincha *yapmak* – "qilmoq" ma'nosida ishlatiladi[19]. *Etmek* so'zi sintaktik qurshovi, kontekst va albatta, unga birikkan ot, sifat, ravish, modal so'z kabi tobe komponentlarning ma'nosiga bog'liq ravishda, shuningdek "biron-bir harakat, ish bilan shug'ullanmoq" semasiga bog'lanib, quyidagi yigirmadan ortiq ma'noni ifodalashi kuzatildi:

1) "jismoniy harakat, ishni amalga oshirmoq"; 2) "aqliy mehnat bilan shug'ullanish", "aqliy ish"; 3) "amalga oshirmoq", "yuzaga chiqarmoq", "vujudga keltirmoq"; 4) *para* – "pul" so'zi bilan qo'llanganda "tenglashtirmoq", "pastga urmoq", "qadrini pasaytirmoq"; 5) "o'zi tobe bo'lgan so'zdan anglashilgan narsa, hodisa, holatiga solmoq"; 6) "shunday narx-navoga teng kelmoq, teng bo'lmoq"; 7) *elde etmek* birikmasi tarkibida "qo'lga kiritmoq", "erishmoq", "olmoq"; 8) "biron-bir kichik yoki katta jismoniy harakatni bajarish, ro'yobga chiqarish"; 9) "so'zlamoq", "gapirmoq"; 10) "ma'lum bir mavzu xususida gaplashmoq, so'zlamoq"; 11) "harakat bajaruvchining emotsional-ekspressiv, modal munosabatini ifodalashi"; 12) "ma'lum bir harakatning holat, natija sifatida namoyon bo'lishi", "matndan, gapdan anglashilgan muddatda holat, vaziyat, sharoit tarzida mavjudligi"; 13) "buyruq maylining ikkinchi shaxs, birlik shaklida qo'llanilib, "Qo'y! Qilma! Kerak emas!" ma'nolarini anglatishi"; 14) "ma'lum bir iboralar tarkibida qo'llanib, muayyan semalarning shakllanishiga sabab bo'lishi"; 15) "ayni muddatgacha ma'lum bir ish bilan mashg'ul bo'lmoq, shug'ullanmoq"; 16) "ma'lum bir ehtiyojni qoplamoq"; 17) "ma'lum holatga solmoq, muayyan bir holat, belgini yuzaga chiqarmoq"; 18) *İyi* – "yaxshi", *kötü* – "yomon" sifatlari bilan birikkanida "ayni holatda ish tutmoq, harakat qilmoq"; 19) "biron-bir holat, vaziyatga tushmoq, kirmoq"; 20) "mahrum qilmoq"; 21) *etmek* fe'li *kalmak* – "qolmoq" leksemasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi va ayni so'zga xos ma'no va vazifada ishlatiladi.

Eylemek faqat yordamchi fe'l sifatida qo'llanilish imkoniga ega leksema hisoblanadi. Hozigi turk tilda bu fe'l-leksema o'rnida ko'pincha *etmek* yordamchi fe'li ishlatilmoqda[20]. *Eylemek* fe'li *etmek, kılmak, yapmak, işlemek* ma'nolaridagi qo'shma fe'llarni yasaydi[21].

Eylemek yordamchi fe'li ko'proq arab tilidan o'zlashgan so'zlar bilan birikib, qo'shma fe'l-leksema hosil qiladi. Masalan: *sabreylemek* – "sabr qilmoq", *reddeylemek* – "rad etmoq", *niyaz eylemek* – "niyoz qilmoq", *arz eylemek* – "arz qilmoq", *seyreylemek* – "kuzatmoq".

Kılmak – "qilmoq" yordamchi fe'li ham *etmek, eylemek, yapmak* fe'l-leksemalariga xos ma'noda ishlatiladi[22], biroq hozirgi turk tilida nisbatan oz qo'llaniladi[23].

---

[18] Örneklerliye Türkçe Sözlük. – İstanbul: Doğan A.Ş., 2004. – Cilt I, – S. 869.
[19] Atabay N, Kutluk İ, Özel S. Sözcük türleri. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1976. – S. 259.
[20] Atabay N, Kutluk İ, Özel S. Sözcük türleri. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1976. – S. 261.
[21] Örneklerliyle Türkçe Sözlük. – İstanbul: Doğan A.Ş., 2004. – Cilt I. – S. 879.
[22] Örneklerliyle Türkçe Sözlük. – İstanbul: Doğan A.Ş., 2004. – Cilt II. – S. 1655.
[23] Atabay.N, Kutluk. İ, Özel.S. Sözcük türleri. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1976. – S. 261.

Masalan: *namaz kılmak* – "namoz o'qimoq", *mecbur kılmak* – "majbur qilmoq"; *etkili kılmak* – "ta'sirchan qilmoq"; *zorunlu kılmak* – "majbur qilmoq"; *yetkili kılmak* – "vakolatli qilmoq"; *etkisiz kılmak* – "beta'sir ahvolga solmoq";

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan manbalarda *eylemek* va *kılmak* yordamchi fe'l sifatida uchramagani bois ular haqida mulohaza yuritilmadi. *Eylemek* va *kılmak* fe'llari, ayni paytda xalq og'zaki ijodi namunalari, moziyda yaratilgan asarlarda ko'p qo'llangan. Demak, ushbu yordamchi fe'llar ma'lum davrda faol ishlatilgan bo'lsa-da, hozir deyarli iste'moldan chiqqan, faqat ayrim so'zlar bilan birikkan shaklda ishlatiladi.

Birinchi bobning *"Yordamchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi fe'l-leksemalar (yapmak, buiunmak)"* nomli to'rtinchi fasli *yapmak, bulunmak* yordamchi fe'llarining mustaqil va yordamchi fe'l sifatidagi semalari tahliliga bag'ishlangan. Turk tilida, avval ta'kidlanganidek, *yapmak* fe'li yordamchi fe'l sifatida farqlanmagan. Lekin ashyoviy misollar tahlili bu fe'lning *etmek, kılmak, eylemek* fe'llariga xos ma'no va vazifani bajarishda qo'llanilishini ko'rsatadi. Ma'lumki, barcha yordamchi fe'llar avval boshda mustaqil ma'no kasb etib, tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida grammatik vazifani bajarishga moslashib borgan.

Yapmak fe'li yordamchi fe'llardan farqli holda turli mustaqil ma'nolarni ifodalaydi, shu bilan birga, otlar bilan kelib, grammatik vazifani bajarishda faol qo'llaniladi. Shu sababli, bizningcha, *yapmak* so'zining yordamchi fe'lga vazifadosh leksema sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq. Yordamchi fe'llardan farqli holda turli mustaqil ma'nolarni ifodalovchi *yapmak* fe'li ot, ravish, harakat nomi, sifat kabi so'z turkumlari bilan sintagmatik aloqaga kirishib, manbalarda mustaqil va yordamchi fe'l-leksema sifatida 32 ma'no orqali ifodalanishi aniqlandi: 1) "biron-bir ishni bajarmoq, amalga oshirmoq"; 2) "biror narsani tayyor holatga keltirmoq", ya'ni "qurdirmoq", "tiktirmoq" "yasatmoq"; 3) "ta'mirlamoq", "tuzatmoq"; 4) buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'plik yoki birlik shaklida ishlatilib, "tinglovchini biror-bir ishdan qaytarishga undash"; 5) "biror bir istak, tilakni amalga oshirmoq, bajarmoq"; 6) "yasamoq", "qurilmoq"; 7) "o'zi uchun zararli bo'lgan ko'p ishlarni qilmoq", "qilmagan ishi qolmaslik"; 8) "barcha yomonliklarni qilmoq"; 9) "natija", "jami", "yig'indi"; 10) "tanlamoq", "saylamoq", "unvon bermoq"; 11) "o'tmoq", "kechmoq"; 12) "ega bo'lmoq", "sohib bo'lmoq"; 13) "o'zini tutmoq", "harakat qilmoq"; 14) "nimaningdir yuzaga kelishiga sabab bo'lmoq, yo'l bermoq"; 15) "muayyan bir holatga solmoq", "biron-bir vaziyatga tushishga sabab bo'lmoq"; 16) "tartibga keltirmoq", "tartibli shaklga, ko'rinishga keltirmoq"; 17) "ishlab chiqarmoq"; 18) "o'ynamoq", "ma'lum bir holatga, qiyofaga, ko'rinishga kirmoq"; 19) "pishirmoq", "hozirlamoq"; 20) "qo'lga kiritmoq", "ishlab topmoq", "yuzaga keltirmoq", "hosil qilmoq"; 21) "biror insonga kasb-kor bermoq", "kasb-hunar egasi qilmoq"; 22) "ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanmoq", "bir ish bilan mashg'ul bo'lmoq"; 23) "vaqtinchalik ish bilan mashg'ul bo'lmoq"; 24) "ifodalamoq", "aks ettirmoq", "ro'yobga chiqarmoq", "maydoga chiqarmoq"; 25) "mato, modda, xomashyo" so'zlari bilan kelganda, ayni materialdan "hosil qilingan", "yasalgan" ma'nosida; 26) "biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lmoq", "ishlamoq"; 27) "biror-bir kichik jismoniy harakatni bajarmoq"; 28) "vaqtinchalik yoki ma'lum muddat biror-bir ish, kasb, mashg'ulot bilan shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq"; 29) "chizmoq", "surat solmoq" yoki "yasamoq"; 30) "uylantirmoq", "xotinlikka bermoq"; 31) *Olmak* so'ziga xos "narsa-hodisaning ma'lum bir holatga kirishishi, o'tishi", "hosil qilmoq", "yuzaga keltirmoq"; 32) "yetakchi komponentdan anglashilgan harakatni amalga oshirmoq, bajarmoq".

14

Yapmak leksemasining yuqorida qayd etilgan ba'zi ma'nolarini manbalardan to'plangan quyidagi misollarda kuzatamiz: *Şehir Belediyesi bozuk yolları yaptı (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Shahar hokimyati buzuq yo'llarni ta'mirladi. Yapma çocuğum, saat bozulur (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Qo'y (bunday qilma), bolam, soat buziladi. Ona professör yaptılar (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Unga professor unvonini berdilar. Artik düğünü burada yaparız (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Endi to'yni shu yerda o'tkazamiz. Bu kiş çok soğuk yaptı (R.H.K. "Nilgün"). Bu qish juda sovuq bo'ldi.*

Turk tili ilmiy adabiyotlarida *bulunmak* so'zi yordamchi fe'l-leksemaning biri sifatida qayd etilmagan[24]. Biroq mavjud materiallar tahlili ayni fe'l-leksemaning *olmak* – "bo'lmoq" yordamchi fe'li ma'nosiga mutanosib ma'no va vazifada faol qo'llanilishini ko'rsatdi. *Bulunmak* so'zi yordamchi fe'l-leksemaga vazifadosh birliklar qatorida tahlil qilinib, muayyan sintaktik qurshov doirasida quyidagi 14 ma'noda ifodalanishi kuzatildi: 1) "harakat nomining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoq", "topilmoq", "qo'lga kiritmoq", "erishmoq"; 2) "bog'liq holda bo'lmoq", "ayni holatga o'tmoq"; 3) "biron-bir ish bilan shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq, muayyan ishni qilmoq, bajarmoq"; 4) "ayni muddatda ro'y bermoq, yuzaga chiqmoq, bajarilmoq"; 5) "ifoda etmoq", "bildirmoq", "munosabatda bo'lmoq"; 6) "mavjud bo'lmoq", "bor bo'lmoq"; 7) "joylashmoq", "borgan bo'lmoq"; 8) "joylashmoq", "yerlashmoq"; 9) "qatnashmoq", "ishtirok etmoq"; 10) "o'rnatilgan bo'lmoq", "aloqadorlikni yuzaga keltirmoq"; 11) "e'tiborda tutmoq", "tasavvur qilmoq", "xayol qilmoq"; 12) "yashamoq", "umr o'tkazmoq"; 13) "ma'lum narsalarga egalik qilmoq", "biror narsaning egasi bo'lmoq"; 14) "ma'lum bir ruhiy, emotsional ahvolga tushmoq".

Bulunmak leksemasining yuqorida qayd etilgan ba'zi ma'nolarini manbalardan to'plangan quyidagi misollarda kuzatamiz: *Üçünün de gızlı örgütleri bugün faaliyette bulunmadan ne yapsın? (R.H.K. "Nilgün"). Uchchovining yashirin tashkilotlari hozir ham faoliyat ko'rsatmasdan nima qilsin? Tam birde otelinizde bulununuz (R.H.K. "Nilgün"). Roppa-rosa birda mehmonxonangizda bo'ling. Tarihi değerini göz önünde bulundurarak 1400 ruble verdik (R.H.K. "Nilgün"). Tarixiy qimmatini ko'zda tutib, 1400 rubl berdik. Elimde bulunanın ne kadarını evde bıraktıversem içim o derece rahat edecek (R.H.K. "Nilgün"). Qo'limda borining qanchasini uyda qoldirsam, ko'nglim shu qadar rohat topadi.*

Bulunmak olmak so'zi bilan sinonimik munosabatga kirishganda, - *makta*, - *mış* affiksli sifatdoshlar ishtirokida turli ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Biroq - *acak*, - *r* shaklli sifatdoshlar bilan muayyan paradigmani shakllantirmaydi.

Tadqiqotning **"Harakatning turli qo'shimcha ma'nolarini ifodalovchi yordamchi fe'llar"** nomli ikkinchi bobi faol ko'makchi fe'llar va nofaol ko'makchi fe'llar tahliliga bag'ishlangan.

Ushbu bobning birinchi fasli **"Faol ko'makchi fe'llar"** deb nomlanib, undagi bo'limlarda davomlilik semali ko'makchi fe'lning ma'nolari tizimi (durmak), imkoniyat fe'lining qo'llanilish doirasi (bilmek), nutqiy natija semali ko'makchi fe'lning o'ziga xos xususiyatlari (kalmak), tugallik va oniylik semali (gitmek, vermek) ko'makchi fe'l-leksemalarning xossalari kabi masalalar o'rganilgan.

---

[24]Ergin M. Türk Dili Bilgisi. -- İstanbul: Bayrak, 1993. – S. 97; Banguoğlu T. Türkçenin grameri. – Ankara, 1990. – S. 101; Hengirmen M. Türkçe dilbilgisi. – Ankara: Engin Yayıncılık, 2005. – S. 300.

Ishning kirish qismida ta'kidlanganidek, turk tilidagi yordamchi fe'llarning semantik turlaridan birini ko'makchi fe'l tarzida nomlash va o'rganish maqsadga muvofiq. Mustaqil fe'llar bilan qo'llanuvchi, aslida mustaqil semali, biroq yetakchi fe'l ishtirokida kelganida turli grammatik ma'nolarini ifodalovchi fe'l leksemalar ko'makchi fe'ilar hisoblanadi.

Turk tilidagi ilmiy manbalar hamda ashyoviy materiallar tahlili natijasida *kılmak – qilmoq, gitmek – ketmoq, durmak – turmoq, bilmek – bilmoq, yazmak – yozmoq, gelmek – kelmoq, vermek – bermoq* fe'llarining aslida mustaqil ma'noni ifodalasa-da, ayrim fe'l-leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishganda qo'shimcha ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi.

Turk tilidagi *durmak* – "**turmoq**" so'zi ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanadigan fe'l leksemalardan biri hisoblanadi. *Durmak* – "turmoq" holat ma'nosini ifodalovchi leksemadir. *Durmak* fe'lining bosh semasi *hareketsiz kalmak, yürümez olmak* – "beharakat bo'lib qolmoq, yurmaydigan bo'lib qolmoq"dir[25]. Masalan: *Makinesi bıraktığı yok, daha kotraya girerken resim çekmeye başlamıştı, hâlâ durmadı (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). U fotoapparatini hech qo'lidan qo'ymasdi, yaxtaga kirgani zahoti rasm ola boshlagan edi, hali to'xtamadi.*

O'rganilayotgan ko'makchi fe'l quyidagi ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi: 1) yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning davomli bajarilib turishi; 2) yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning takroriy ravishda bajarilishi; 3) "mavjud bo'lmoq"; 4) yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning davomli ravishda, muntazam bajarilib turishi; 5) zid ma'noni, ya'ni ish-harakatning bir marta yoki takroriy bajarilganini ifoda etishi; 6) payt ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi tobe gap kesimi vazifasini bajarishi. Demak, turk tilidagi *durmak* – "turmoq" ko'makchi fe'li bosh semasiga bog'liq ravishda yetakchi fe'lga turli ustama ma'nolarni yuklashda xizmat qiladi. *Durmak* – "turmoq" ko'makchi fe'li yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning davomli yoki takroriy bajarilishi ma'nosini ifodalaydi. *Durmak* – "turmoq" ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga – *(y)ıp* yoki – *(y)a, – (y)e* ravishdosh yasovchilari yordamida birikadi.

"Imkoniyat fe'lining qo'llanilish doirasi (bilmek)" nomli 2.1.2. bandda turk tilidagi ko'makchi fe'llardan eng faoli *bilmek* – "bilmoq" fe'l-leksemasining ma'nolari tadqiq etilgan. Shu bois bu fe'l-leksemaning ma'nolari asosida *bilmek* so'zini insoniyat aspekti ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilishiga olib klegan[26]. Umuman, bu fe'l turk tilshunosligida ham imkoniyat fe'li tarzida farqlanadi[27].

Bilmek so'zining birlamchi semasi "biror narsani aniqlamoq" yoki "bilgan bo'lmoq"dir[28]. Masalan: *Çünkü iyi bilirim ki insan kendisini ancak kendisini koruyabilir (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Chunki yaxshi bilamanki, inson o'zini faqat o'zini himoya qila oladi. Bilmek* ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga – *(y)a/– (y)e* ravishdosh ko'rsatkichlari yordamida birikadi: *Bu gülümsemeğe çocuksu, saf denilebilirdi (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Bu kulimsirashni bolalarcha sof deb aytish mumkin edi.*

Bilmek fe'li ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanganda quyidagi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi: 1) yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi yoki holatning yuzga kelishi; 2) o'timli va o'timsiz fe'llar bilan qo'llanilib, biror ish-harakatning bajarilish imkoniyati; 3) ish-harakatning bajaruvchi subyekti tomonga yo'nalganligi;

---

[25] Türkçe Sözlük. – İstanbul: Dil Derneği, 1997. Cilt I. – S. 412.
[26] Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. – М. – Л.: Наука, 1956. – С. 191-192.
[27] Hengirmen M. Türkçe dilbilgisi. – Ankara: Engin Yayıncılık, 2005. – S. 266.
[28] Türkçe Sözlük. – İstanbul: Dil Derneği, 1997. Cilt I. – S. 213.

4) bir marotaba bajariladigan ish-harakat ma'nosi; 5) "arziydigan", "yaraydigan", "talabga javob beradigan" belgi ma'nosi; 6) "harakatni bajara olish imkoniyatiga egalik"; 7) "ish-harakatni bajarish imkoniga egalik, qodirlik"; 8) "muayyan voqea-hodisaning ro'y berish ehtimoli"; 9) ish-harakatning amalga oshishi uchun hech qanday to'siq yo'qligi, to'siq bo'lsa ham bajaruvchining harakatini amalga oshirish uchun izn, ruxsat yoki imkoniyat mavjudligi. Demak, *bilmek* fe'li yetakchi fe'l bildirgan harakatni bajarish imkoniyati yoki subyektning bu harakatni bajara olishini (yoki bo'lishsiz shaklda – bajara olmasligini) bildiradi. Zero, N.A. Baskakovning ta'kidlashicha, *bilmoq* ko'makchi fe'lining bu ma'noda qo'llanilishi o'g'uz guruhlariga mansub turkiy tillar uchun xarakterli hisoblanadi. Boshqa guruhga oid tillarda bu ma'noda asosan, *olmoq* leksemasi ishlatiladi[29].

"Nutqiy natija semali ko'makchi fe'lning o'ziga xos xususiyatlari (kalmak)" nomli 2.1.3. bandda turk tilidagi ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan mustaqil fe'llardan biri *kalmak* – "qolmoq" fe'l-leksemasining ma'nolari o'rganilgan. *Kalmak* – "qolmoq" so'zining birlamchi ma'nosi "bo'lgan, turgan joyini o'zgartirmaslik, davomli bir joyda bo'lmoq"dir[30]: *Ne olur Mehmet, gitme kal, biz daha kimbilir ne vakit görüşeceğiz (R.H.K. "Nilgün"). Nima bo'ladi, Mehmet, ketma, qol, biz, tag'in kim biladi, qachon ko'rishamiz.*

M.Hengirmenning e'tiroficha, *durmak, kalmak, gelmek* fe'llari qatnashuvidan hosil bo'lgan qo'shma fe'l davomlilik fe'li (*sürerlik eylemi*) deb nomlanadi. Bu fe'llar ish-harakatning davomli va muntazam bajarilganligini bildiradi[31]. Darhaqiqat, o'rganilayotgan ko'makchi fe'l-leksemaning asosiy semalaridan biri shunday, ammo *kalmak*ning semalari faqat bu ma'no bilan cheklanmaydi.

Ashyoviy materiallar tahliliga ko'ra, ko'makchi fe'l vazifasini bajarib kelgan *kalmak* fe'li quyidagi ma'nolarni anglatishda ishlatiladi: 1) O'zi bog'langan yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi va holatga aylanishini ifodalaydi: *O durumda sızıp kalmışım ki, onu sabahleyin baş yastığımın üzerinde bumburuşuk, birçok yerinden yırtılmış hâlde buldum; utanarak bavuluma sakladım (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). O'sha ahvolda mast bo'lib qolibmanki, xatni ertalab yostig'imning boshida g'ijimlangan, bir necha joyidan yirtilgan holda topdim, uyalib sumkamga soldim.* 2) Yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilib yakunlanganligi, tugallanganligi ma'nosini anglatishga xizmat qiladi. Masalan: *Hevesim içimde mi gömülüp kalmıştır, nedir, ben de bilmiyorum (R.H.K. "Nilgün"). Havasim ichimda ko'milib qolganmi, nima balo, men ham bilmayman.* Bu gapdagi *gömülüp kalmak* fe'li o'tgan zamonda bajarilib nihoyalangan ish-harakatni ifodalagan. 3) Yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning bir marta bajarilganligi, takroriy va davomli emasligini ifodalaydi: *Şimdi Akşam gazetesine göz gezdiriyorum; daha çok İstanbul'un hayatını yansıttığı için ona aboneyim evde yığılır kalır (R.H.K. "Nilgün"). Hozir "Oqshom" gazetasiga ko'z yugurtiryapman, ko'proq İstanbul hayotini aks ettirgani uchun unga mushtariyman, uyda to'planib qoladi. Şaşırıp kaldım, kan bir anda başıma hücum etti (R.H.K. "Nilgün"). Hayron bo'lib qoldim, bir onda asablarim tarang tortildi.* Ayni jumlalardagi *yığılıp kalmak* – "yiqilib qolmoq", *şaşırıp kalmak* – "hayron bo'lib qolmoq" qo'shma fe'llari bir marotabalik harakat-holat tushunchasini ifoda etadi.

---

[29] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. – М.: Наука, 1952. – С. 381-382.
[30] Türkçe Sözlük. – Cilt I. – İstanbul: Dil Derneği, 1997. – S. 241.
[31] Hengirmen M. Türkçe dilbilgisi. – Ankara: Engin Yayıncılık, 2005. – S. 272.

17

Kalmak – "qolmoq" ko'makchi fe'li asosan yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning holatga aylanishi, ayni harakatning holat sifatida nutq vaziyatida mavjudligi hamda ayni holatning nisbiy muqimlikka (nutq onida) egaligi kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi.

"Tugallik va oniylik semali (gitmek, vermek) ko'makchi fe'l-leksemalarning xossalari" nomli 2.1.4. bandda turk tilidagi *gitmek* – "ketmoq", *vermek* – "bermoq" fe'llari tahlilga tortilgan. *Gitmek* – "ketmoq" so'zi turk tilidagi ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi leksemalardan biri hisoblanadi. Yo'llanma harakat ma'nosini ifodalovchi bu fe'lning semalari maxsus o'rganilgan[32]. Ushbu fe'l mustaqil birlik bo'lsa-da, matnda qo'shimcha ma'noni ifodalash imkoniga ega. Bu so'zning mustaqil leksema sifatidagi birlamchi semasi "bir tomonga yo'nalmoq"dir[33]: *Maksadı Fikret'e gitmekti (R.N.G. "Bir Kadın Düşmanı"). Maqsadi Fikratnikiga ketish edi.*

Gitmek – "ketmoq" ko'makchi fe'l vazifasini bajarganida, quyidagi ma'nolarni ifoalaydi: 1) O'zi bog'lanib kelgan yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning to'la bajarilganligini bildiradi: *Artık bu hayaller kafamdan silinip gitti (R.N.G.). Endi bu xayollar meni tark etib uchib ketdi.* 2) Ish-harakatning to'la bajarilishi ma'nosi bilan birga yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning bajarilish yo'nalishi, ya'ni nari tomonga qarata bajarilishini bildiradi. Bunday hollarda *gitmek* so'zining birlamchi ma'nosi ma'lum darajada saqlanib qoladi: *Duşun sağanağı dinliorum; vücudunu döverek akıp giden sağanağı (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Dush suvining shovqinini tinglayapman, vujudimni urib-urib oqib ketayotgan suvlar shovqini!* 3) Yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatdagi me'yordan ortiqlik, yuqorilikni anglatadi: *Sesi de hülyalı derinden akışı belli olmayan bir dere gibi yavaşlık içinde kayıp gidiyor (R.H.K. "Memleket Hikayeleri"). Ovozi ham xayolchan, noma'lum chuqurlikda oqayotgan anhor kabi sukunat ichida g'oyib bo'lib ketyapti.*

Turk tilida ko'makchi fe'l vazifasida kelishi mumkin bo'lgan leksemalardan yana biri *vermek* – "bermoq" hisoblanadi. Ushbu so'zning bosh ma'nosi *"üzerinde veya yakınında olan bir şeyi birisine eriştirmek, iletmek"* – "ustida yoki yaqinida bo'lgan bir narsani birovga olib bormoq, yetkazmoq"dir[34]. *Vermek* – "bermoq" fe'li yetakchi fe'lga – (y)i⁴ shaklli ravishdosh yasovchi affiks orqali bog'lanadi: *Planımı bir anda hazırlayıverdim (Y.K.K. "İnce Memed"). Rejamni bir onda hozirladim.*

Ko'makchi fe'l vazifasida kelgan *vermek* – "bermoq" fe'lining quyidagi ma'nolari aniqlandi: 1) yetakchi fe'l bildirib kelgan ish-harakatning tez, bir zumda bajarilganligini bildiradi: *Giriniz. Gürültü etmeyelim. Sultan uyuda. İstediği zaman bir dakikada uyuyuverir (R.H.K. "Nilgün"). Kiring. Shovqin solmaylik. Sulton uxladi. Istagan paytida bir daqiqada uxlab qoladi;* 2) yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning to'la bajarilishini bildiradi: *Ama birdenbire, bir senli benli oluverişleri vardi ki bu hal tipki prensesin tarzına uyardı (R.H.K. "Nilgün"). Ammo birdaniga san-manga borishlari bor ediki, bu hol xuddi malikaning xatti-harakatlariga o'xshardi;* 3) me'yoriy jihatdan kuchlilikni, yuqorilikni bildiradi. Bu ma'no harakat-holatga nisbatan bo'ladi: *Ondan mahrum kalınca Nil'i kuruvermiş mısır gibi çorak, ıssız, hazin bir çöle döneceğine inanıyorum*

[32] Шабанов Ж. Турк ва ўзбек тилларида фаол харакат феъллари семантикаси: Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент., 2004. – B. 19.

[33] Türkçe Sözlük. – Cilt I. – İstanbul: Dil Derneği, 1997. – S. 544.

[34] Türkçe Sözlük. – Ankara, 1988. Cilt 2. – S. 1557-1558.

(R.H.K. "Nilgün"). Undan mahrum bo'lgach, Nilni **qurib ketgan** makkajo'xori kabi unumsiz, egasiz, hazin bir cho'lga aylanishiga ishonyapman; 4) ish-harakat bajarilishining boshlanishi va gapirilayotgan vaqtda davom etishini bildiradi: *Gülümsemeği bırakarak gülmeğe başladı. Ben de gülüyordum, Dilbeste Hanım da...* Birdenbire hepimiz **çocuklaşıvermiştik**(R.H.K. "Nilgün"). *Jilmayishdan kulishga o'tdi.* Men ham kulayotgan edim, Dilbasta xonim ham... Birdaniga hammamiz **bola bo'lib qolgan edik;** 5) harakatning oldin bo'lmaganligi, keyin yuzaga kelganligi va shu maromda davom etishini anglatadi: *Birdenbire eğilsem ve Dilbeste' yi, ünvanları, onurumu, terbiyemi hiçe sayarak o gözleri **öpüversem** mi (R.H.K. "Nilgün")?* Birdaniga egilsam va Dilbastani, urvonlarini, g'ururimni, tarbiyamni yo'qqa chiqarib o'sha ko'zlarni **o'paversammi?;** 6) ish-harakatning bajarilishi uchun mone'likning, to'sqinlikning yo'qligi ma'nosini ifodalaydi. *– Kim okuyor bunu? Diye sormamak ustalığını gösterdim va bir aralık, Dilbeste'ye farkettirmeden kitabı, divan üstüne bırakmış olduğum çeketimin cebine **sokuverdim** (R.H.K. "Nilgün").* – Kim o'qiyapti buni? deb so'ramaslik uchun ustalik qildim va bir muddat Dilbastaga sezdirmay, kitobni divan ustiga tashlab qo'ygan kastyumimning cho'ntagiga **tiqib qo'ydim.** 7) ish-harakatning narsa-buyum (subyekti) turgan joydan nariga qarab yo'nalganligini ifodalaydi: *Hiç de hoş görmek ve Sultan Hanımın kaprisine boyun eğmek niyetinde değildim. Hatta bir an dönüp kamaradan **çıkıvermeyi** bile düşünmüştüm. Yapamadım, yapamıyordum (R.H.K. "Nilgün").* Sira ham yoqish Sulton xonimning injiqliklariga bo'yin egish niyatida emasdim. Hatto bir on kayutadan **chiqib ketishni** ham o'yladim. Chiqa olmadim, chiqa olmayotgan edim. Shu jihatdan vermek leksemasi gitmek ko'makchi fe'liga xos ma'noni anglatadi. Bunda, so'zlovchi harakatning bajarilishi narigi tomonga yo'nalganini urg'ulaydi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **"Nofaol ko'makchi fe'llar"** deb nomlanib, unda turk tilidagi yazmak, gelmek leksemalarining nofaol ko'makchi fe'l vazifasida kelishi o'rganilgan. *Yazmak* yetakchi fe'lga ravishdosh yasovchi *-(y)a, -(y)e* orqali birikadi va quyidagi ma'nolarni bildirishga xizmat qiladi: 1) *Yazmak* yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning yuz berishga oz qolganligi, ammo hali bajarilmaganligi ma'nosini anglatadi: *Az kaldı, **düşeyazdım** (R.N.G. "Çalıkuşu").* Sal bo'lmasa **yiqilib tushardim.** 2) *Yazmak* nofaol ko'makchi fe'l sifatida: – *"Anlatılanları **yazmak** gerekir"* – Aytilganlarni **yozib olish kerak.** Bu yerda yazmak asosiy fe'ldek ko'rinsa-da, asl maqsad – aytilgan ma'lumotni qayd etish jarayonini anglatish bo'lib, u yordamchi rol o'ynaydi. Lekin turk tilshunosligida yazmak ko'pincha mustaqil fe'l sanaladi, ya'ni uning nofaol ko'makchi fe'l sifatidagi roli chegaralangan. 3) *Feride, günlüğüne **yazmaya** başlamıştı (R.N.G. "Çalıkuşu").* Feride kundaligini **yozishga** kirishgandi. Ushbu misolda yazmak fe'li "biror ishga kirishmoq, biror ishni boshlamoq" ma'nolarida qo'llanilgan. 4) *Yazmak* fe'li "davom etmoq" semasini ifodalaydi: *Romanını yıllardır **yazmakta olan** adam sonunda bitirdi (R.N.G. "Çalıkuşu").* Yillar davomida roman **yozib kelayotgan** odam nihoyat uni tugatdi. 5) *Yazmak* fe'l-leksemasi takroriy, odat tusidagi ish-harakatni bildiradi: *O, geceleri hatıralarını **yazıp dururdu.*** U tunlari xotiralarini **yozib turardi** (H.E.A. "Kalp Ağrısı").

Gelmek fe'liga oid manbalardan to'plangan misollar uning qiyidagi ma'nolarni ifodalab kelishini ko'rsatdi: 1) *Gelmek* yetakchi fe'lga *-(y)a, -(y)e* ravishdosh ko'rsatkichlari orqali bog'lanadi. Bu ko'makchi fe'l yuklaydigan ma'nosiga ko'ra,

davomlilik (süreklilik) fe'li deb ham nomlangan[35]. Zero, *gelmek* yetakchi fe'l bildirgan ish-harakatning davomli tarzda bajarilgnligini anglatadi. Masalan: *Yıllardan beri bu efsane burada söylenegelmiştir. Yıllardan beri bu afsona bu yerda so'zlanib kelingan.* 2) *Gelmek* matnda muntazam ravishda, takrorlangan holda bajarilgan harakat-holat ma'nolarini bildiradi. Masalan: *Eskiden yapılan savaşlarda yıllarca kılıç kullanılagelmiştir. Qadim zamonda bo'lib o'tgan janglarda yillar davomida qilich ishlatilib kelingan.* 3) Ayniqsa, vaqt, ehtimollik yoki boshlanish ma'nosini ifodalashda qo'llaniladi: *Yapacak gibi gelmek – Go'yo qiladigandek tuyulmoq. Ağlamaya gelmek – Yig'lash darajasiga kelmoq. Böyle şeyler söylemek sana yakışmaz, aklına gelmek bile yanlış (O.P. "Kar") – Bunday gaplarni aytish senga yarashmaydi, hatto esingga kelishi ham noto'g'ri.* Bu yerda *gelmek* yordamchi fe'l sifatida ishlatilib, subyektning ruhiy holati, taxmin, boshlanish yoki ehtimol ma'nolarini ifodalaydi. 4) "Harakatga o'tmoq", "holatga kirmoq" semalarini ifodalaydi: *Halk yavaş yavaş toplanmaya geliyordu (R.N.G. "Çalıkuşu"). Xalq asta-sekin to'plana boshladi.* 5) *Gelmek* fe'l-leksemasi quyidagi misolda doimiy, takroriy ish-harakat ma'nosini ifodalaydi: *Köylüler her gün çalışmaya gelirdi. Qishloq aholisi har kun ishlashga kelardi (Y.K. "Ince Memed").*

Tadqiqotning uchinchi bobi **"İmek – yordamchi fe'li va fe'lning tavsifiy shakllari"** deb nomlanib, unda *imek* yordamchi fe'lining morfologik va struktur-semantik jihatlari, shuningdek, unga aloqador bo'lgan to'liqsiz fe'llarning turli kontekstlardagi qo'llanishi, uslubiy imkoniyatlari hamda inkor ma'noli shakllari tahlilga tortilgan.

Ot so'z turkumiga tegishli so'zlar ishtirokida kelib, o'zi bog'langan so'z mazmuniga o'tmishga oidlik, eshitilganlik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar to'liqsiz fe'llar deb ataladi. Turk tilshunosligida to'liqsiz fe'llar *cevher fiil –* "gavhar fe'l", *ek fiil, ek eylem –* "yordamchi fe'l" termini bilan ifodalanadi[36]. Turk tilshunosligida to'liqsiz fe'llarning o'rganilish tarixi, darajasi, mavjud dunyoqarashlar o'zbek tilshunosligidagi yondashuvlardan bir muncha farqlanadi. O'zbek tilshunosligidagi to'liqsiz fe'llar yordamchi fe'llarning ma'no turlaridan biri hisoblanadi hamda *edi, emish, ekan* leksemalari ayni fe'llar qatoriga kiritiladi[37]. Turk tilshunosligida esa to'liqsiz fe'llar boshqacha talqin etiladi. Bunda otlarga qo'shiladigan shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'llarning hozirgi zamon shakllari, *idi, imiş, ise* so'zlari esa o'tgan zamon shakllari sifatida o'rganiladi.

Ushbu bobning birinchi fasli **"İdi to'liqsiz fe'lining semantik-stilistik xususiyatlari"** deb nomlanib, unda "idi" to'liqsiz fe'li turk tilida o'tgan zamon ma'nosini ifodalovchi yordamchi fe'l bo'lib, otlar va fe'l shakllari bilan qo'llanishi, shuningdek, gapda narsa, hodisa yoki holatning nutq onidan avval mavjud bo'lganligi, qisqa va to'liq shakllarda ishlatilishi, turli mayl va zamon shakllaridagi fe'llar bilan birikib, takroriylik, davomiylik, taxmin, istak yoki zarurat kabi semantik-grammatik ma'nolarni hosil qilishi o'rganilgan.

İdi to'liqsiz fe'li *imek* so'zining o'zagiga singarmonizm qonuniga muvofiq sakkiz fonetik variantli o'tgan zamon fe'lining – *di* affiksini qo'shish orqali yasalgan: *Ne kadar taş yürekli olursa olsun, o da işin nihayetti bir insan idi (R.N.G. "Bir Kadın Düşmanı"). Nechog'li toshyurak bo'lsa ham, u nihoyati bilan bir odam edi.*

[35] Hengirmen M. Türkçe dilbilgisi. – Ankara: Engin Yayıncılık, 2005. – S. 345.
[36] Ergin M. Türk dilbilgisi. – İstanbul, Bayrak, 1993. – S. 270; Banguoğlu T. Türkçenin grammeri. – Ankara, Türk tarih kurumu, 1990. – S. 528; Hengirmen M. Türkçe dilbilgisi. – Ankara: Engin Yayıncılık, 2005. – S. 302
[37] Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1975. – Б. 418.

Idi to'liqsiz fe'li "ot + to'liqsiz fe'l" (*masallardi – ertaklar edi*), "son + to'liqsiz fe'l" (*on birde idim – o'n bir yoshda edim*), "olmosh + to'liqsiz fe'l" (*buydu – shu edi*), "sifatdosh + to'liqsiz fe'l" (*doyurucu idi – to'yimli edi*), "sifat + to'liqsiz fe'l" (*layıktı – loyiq edi*), "ravish + to'liqsiz fe'l" (*sonra idi – keyin edi*), "harakat nomi + to'liqsiz fe'l" (*olmamdandı – sababli edi*), "modal so'z + to'liqsiz fe'l" (*yoktu – yo'q edi*) shakllarida turli so'z turkumlari bilan birikib, o'tgan zamonda yuz bergan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi.

To'liqsiz fe'llardan faqat *idi* zamon ma'nosiga ega bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalashda qo'llanadi: 1) Ot turkumiga kiruvchi so'zlar bilan kelib, narsa, hodisa, belgining umuman o'tgan zamonga oidligini bildiradi; 2) narsa, hodisa, belgi ma'nolarining ikkinchi bir hodisa yuz bergunigacha yoki hozirgi vaqtgacha mavjud bo'lganligi ma'nosini bildiradi; 3) badiiy asarlarda biron-bir ko'rinish, manzara, peyzaj, asar qahramonining tashqi qiyofasi, portreti kitobxon uchun chizilayotganida qo'llanilsa, ayni holat, ko'rinishining so'zlanayotgan vaqtda natija sifatida namoyonligi ma'nosini ifodalaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli *"İmiş so'zi semalarining matnda reallashuvi"* deb nomlanib, unda turk tilidagi *imiş* to'liqsiz fe'lining o'zbek tilidagi *emish* va *ekan* to'liqsiz fe'llari bilan leksik-grammatik va semantik uyg'unlikdagi farqlari, o'xshashliklari, ularning qo'llanish sohalari va ma'no ko'lami tadqiq etilgan.

Turk tilida *imiş* so'zi to'liqsiz fe'l bo'lishi bilan bir paytda fe'lning hikoya shaklini hosil qiluvchi maxsus ko'rsatkich hisoblanadi[38], biroq ayni leksema *imek* fe'liga – *miş* o'tgan zamon qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgani sababli to'liqsiz fe'l shakli sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Tadqiq etilayotgan to'liqsiz fe'l quyidagi ko'rinishlarda ishlatiladi: 1) *İmiş* to'liq shaklda ishlatilishi hamda barcha mustaqil so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarga bog'lanishi mumkin: *Sana fena halde **dargın imiş** (R.N.G. "Bir Kadın Düşmanı"). Sendan juda **xafa emish.*** 2) Qisqa shaklda qo'llanganida, to'rt fonetik variantga ega bo'ladi. *– miş, – müş, – muş, – mış* undosh bilan tugallangan so'zlarga singarmonizm qonuniga muvofiq qo'shiladi: *Ama oğlunun hatırı için sesini **çıkarmıyormuş** (R.N.G.). Ammo o'g'lining hurmati uchun **indamayotgan emish.*** 3) Unlilar bilan tugallangan so'zlarga singarmonizm qonuniga muvofiq qo'shilganda, to'liqsiz fe'l va o'zak o'rtasida y undoshi orttiriladi hamda *– ymiş, – ymış, – ymuş, – ymüş* shakllarida voqelanadi: *Ayrı oturmak istemesinin asıl sebebi yeni **yengesiymiş** (R.N.G. "Bir Kadın Düşmanı"). Alohida yashashni istashining asl sababi **yangasi emish.***

İmiş to'liqsiz fe'li "ot + imiş" (*binaymış – bino ekan*), "sifat + imiş" (*faydasızmış – foydasiz emish*), "ravish + imiş" (*azmış – oz ekan*), "olmosh + imiş" (*kimmiş – kim ekan*), "son + imiş" (*birdaymış – bir yoshda ekan*), "modal so'z + imiş" (*yokmuş – yo'q ekan*) shakllarida turli so'z turkumlari bilan birikadi hamda o'tgan zamonda yuz bergan ish-harakatni ifodalab, eshitganlik, bilvosita xabardorlik ma'nolarini bildiradi.

Manbalardan to'plangan misollar tahlilidan *imiş* to'liqsiz fe'lining eshitib bilganlik, shubha, noaniqlik, norozilik, kinoya, keyin bilganlik, o'tmishda bajarilgan ish-harakatni bilvosita bayon qilish kabi ma'nolarni ifodalashi kuzatildi.

Uchinchi bobning uchinchi fasli *"Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usuli"* deb nomlanib, turk tilidagi *ise* to'liqsiz fe'lining o'zbek tilidagi "esa" bog'lovchisi va "bo'lsa" shakli bilan qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. *İse* to'liqsiz fe'li

---

[38] Gencan T.N. Dilbilgisi. – Ankara, 2001. – S. 293-294; Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. – Ankara, 1997. – S. 240-246.

21

to'liq yoki qisqa shaklda ishlatilishi mumkin. Masalan, quyidagi misolda *ise* so'zi to'liq shaklda qo'llangan: *Kötülükler* **ise** *Cenab-ı Mesih'in pek sevgili evlatlarınındır (R.H.K. "Nilgün")Yomonliklar* **esa** *Janabi Masihning suyukli avlodlarinikidir.* Qisqa shakldagi *ise* to'liqsiz fe'li fonetik variantga ega: – sa, – se to'liqsiz fe'llari turk tilidagi unlilarning uyg'unlashuvi qonuniga muvofiq ishlatiladi. – *sa* ko'rsatkichi qattiq unlili bo'g'in tugallangan so'zlarga qo'shilsa, – *se* yumshoq unli bo'g'in bilan tugallangan so'zlarga qo'shiladi: *Onun adını* **söylerse** *hayatının bütün sırları ortaya dökülecek sanıyordu (R.N.G."Bir Kadın Düşmanı"). Uning ismini* **aytib yuborsa,** *butun sirlari oshkor bo'ladiganday tuyulardi.*

To'liq yoki qisqa shakldagi *ise*ning quyidagi so'z turkumlari bilan ishlatilishi aniqlandi: "ot + ise" (*Vesime'yse – Vesima esa*), "sifat + ise" (*muhtaçsa – muhtoj bo'lsa*), "modal so'z + ise" (*yoksa – yoki bo'lmasa*), "olmosh + ise" (*bense – men bo'lsam*), "ravish + ise" (*çoksa – ko'p bo'lsa*), "hozirgi-kelasi zamon fe'li + ise" (*söylenirse – aytilsa*), "o'tgan zamon fe'li + ise" (*yaptımsa – qilgan bo'lsam*), kelasi zamon fe'li + ise" (*yaşayacaksa – yashaydigan bo'lsa*).

İse to'liqsiz fe'li qatnashgan gaplar tahlili ushbu leksemaning quyidagi ma'nolarda ishlatilishini ko'rsatdi: 1) Qarama-qarshi yoki taqqoslovchi bog'lovchilik ma'nosi (*esa, bo'lsa*); 2) shart mayliga xos ma'no (*agar... bo'lsa*); 3) modal munosabatni ifodalovchi kirish so'z vazifasida (*unday bo'lsa, shunday bo'lsa*); 4) ogohlantirish yoki bo'lmasa... oqibati yomon bo'ladi degan ma'no (*bo'lmasa, aks holda*); 5) qiyoslash, solishtirish ma'nosi (*...dan ko'ra*); 6) to'siq bo'lishiga qaramay ish-harakatning yuz berishi (*... bo'lsa ham, ... ga qaramay*). Demak, turk tilidagi *ise idi, imiş* leksemalari singari to'liqsiz fe'l vazifasida faol qo'llanadi. Bu so'z ismiy so'z turkumlari va fe'llarning mayl yoki zamon shakllari ishtirokida keladi. *İse* kontekstga ko'ra, *esa* so'zi yoki shart mayliga xos ma'no va vazifada kelishi mumkin. Shuningdek, tahlil o'rganilayotgan leksemaning *esa, bo'lsa* so'zlariga xos ma'nolarda ishlatilishini ko'rsatdi. Ma'lum bir so'zlar yoki grammatik shakllar bilan qo'llangan bu to'liqsiz fe'l spetsifik mazmunlarni tashish imkoniyatiga ega.

Uchinchi bobning to'rtinchi fasli **"Değil so'zi to'liqsiz fe'lning bo'lishsiz shakli sifatida"** deb nomlanib, unda *"değil"* so'zining sintaktik, semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinib, u gapda turli so'z turkumlari bilan birikkan holda harakat, belgi, holatning mavjud emasligini, qarama-qarshilik, kuchaytiruv, ta'kid, inkor va ritorik so'roq mazmunlarini ifodalashda keng qo'llanilishi asoslangan.

Otlar, barcha mayl va zamon makonlaridagi fe'llarda inkor, bo'lishsizlik mazmunini reallashtirish uchun *değil –*"emas" so'zi ishlatiladi. Zero, turk tilining izohli lug'atida ham *değil* so'zining bosh ma'nosi *"isim cümlesinde yükleme veya başka öğelere olumsuzluk anlamı veren kelime"* – "ot kesimli gaplarda kesim yoki boshqa gap bo'laklariga inkor ma'nosini beruvchi so'z" tarzida izohlangan[39]. Biroq ashyoviy misollar tahlili *değil* so'zining nafaqat ot-kesimli gaplar, balki fe'l-kesimli gaplar tarkibida ham keng qo'llanilishini ko'rsatadi. *Değil* so'zi kesim vazifasini bajargan otlarga qo'shilib keladi[40].

Değil to'liqsiz fe'li quyidagi so'z turkumlari bilan sintagmatik aloqaga kirishadi: "ot + değil" (*çocuk değilim – bola emasman*), "sifat + değil" (*izinli değilsiniz – ruxsatingiz yo'q*), "olmosh + değil" (*biz değiliz – biz emasmiz*), "modal so'z + değil" (*mümkün değil*

---

[39] Türçe Sözlük. – Ankara, 2005. Cilt 1. – S. 345.
[40] Gencan T.N. Dilbigisi. – Ankara, 2001. – S. 291.

– *mumkin emas*), "sifatdosh + değil" (*çekici değildi – e'tiborini jalb etmadi*), "tuslangan fe'l + değil" (*söyleyecek değilim – so'zlab bermoqchi emasman*).

Değil to'liqsiz fe'lining inkor, mavjud emaslik (*Sen mahpus değilsin – "Sen mahbus emassan"*), harakatning mavjud emasligi (*dolandırıcılığa düşmüş değiliz – "aldovga uchragan emasmiz"*), belgining mavjud emasligi (*belli değil – "ma'lum emas"*), muayyan kasb, lavozim, unvonning yo'qligi (*politikacı değilim – "siyosatchi emasman"*), narsa yoki holatning biror shaxs yoki hodisaga tegishli emasligi (*benim adetim değildir – "bu mening odatim emas"*), ta'kidlovchi, qarama-qarshi ma'no (*öfke ile değil, gülümseme ile söyledi – "g'azab bilan emas, tabassum bilan aytdi"*), kuchaytirilgan inkor bilan bo'lishlilikni ifodalash (*bilmiyor değilim – "bilmayman emasman" (ya'ni, "bilaman")*), zamon shakllari bilan o'zgaruvchi ma'nolar (*geçmedi değil – "o'tmadi emas" ("o'tdi")*), tasdiq shaklidagi so'roqlar (*mektup yazarsın, değil mi? – "xat yozasan, to'g'rimi?"*), emotsional-ekspressivlik (*razı değilim; katiyen değilim – "mutlaqo rozi emasman"*) kabi ma'nolarni ifodalashi aniqlandi.

XULOSA

Turk tilidagi yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilida ifodalanishini tadqiq etish bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Turk tilidagi yordamchi fe'llarni ma'nosi va vazifasiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: yordamchi, ko'makchi, to'liqsiz fe'llar. Ot, olmosh, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari bilan qo'llanuvchi yordamchi fe'llarga *yapmak, kılmak – "qilmoq", etmek – "etmoq", eylemek – "aylamoq", olmak – "bo'imoq"* leksemalarini kirtish maqsad muvofiq.

2. *Olmak* yordamchi fe'li ot, olmosh, ravish, sifatdosh, harakat nomi hamda modal so'zlar bilan hosil qilgan konstruksiyalar orqali 42 ta turli semantik birlikni ifodalashi aniqlandi. Bu esa uning turk tilidagi yordamchi fe'llar orasida eng yuqori funksional faollikka ega va ko'p qo'llaniladigan birlik ekanini ko'rsatdi.

3. *Etmek* fe'li turk tilidagi yordamchi fe'llar orasida faolligiga ko'ra *olmak*dan keyingi ikkinchi o'rinda turishi aniqlandi. Bu fe'l leksemasi yakka holda qo'llanadi, uning sintaktik qurshovi, matnga va unga birikkan tobe komponentning ma'nosiga bog'liq ravishda yigirmadan ortiq semani ifodalashi kuzatildi.

4. *Eylemek* va *kılmak* fe'llarining yordamchi fe'l sifatida qo'llanishi kuzatilmadi. Mazkur fe'l birliklari asosan tarixiy manbalar hamda xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida faol ishlatilgan bo'lib, zamonaviy yozma matnlarda ularning yordamchi fe'l sifatidagi funksiyasi deyarli uchramaydi.

5. *Yapmak* fe'li ilmiy adabiyotlarda yordamchi fe'l sifatida alohida o'rganilmagan bo'lsa-da, ashyoviy misollar tahlili ushbu fe'lning *etmek, kılmak, eylemek* kabi yordamchi fe'llarga xos ma'no va vazifalarni bajarishda faol qo'llanilishini ko'rsatdi. Shu bois, *yapmak* fe'l-leksemasini yordamchi fe'l sifatida ajratib o'rganish zarur. Tadqiqot davomida ushbu fe'lning o'ttizdan ortiq semantik birligi aniqlandi.

6. Ilmiy tadqiqotlarda *bulunmak* fe'li yordamchi fe'l sifatida qayd etilmagan. Biroq ashyoviy materiallar tahlili fe'lning *olmak – "bo'lmoq"* yordamchi fe'liga mutanosib ma'no va vazifada faol qo'llanishini ko'rsatdi. *Bulunmak* so'zi yordamchi fe'l-leksemaga vazifadosh birliklar qatorida tahlil qilinib, muayyan sintaktik qurshov doirasida

14 ma'noda ifodalanishi kuzatildi. Tahlillar *bulunmak* va *olmak* leksemalari boshqa yordamchi fe'llardan farqli o'laroq, sifatdosh shakllari bilan ham qo'llanishini ko'rsatdi.

7. Ashyoviy materiallar tahlili *kalmak* – "qolmoq", *gitmek* – "ketmoq", *durmak* – "turmoq", *bilmek* – "bilmoq", *yazmak* – "yozmoq", *gelmek* – "kelmoq", *vermek* – "bermoq" fe'llarining mustaqil ma'no ifodalashi, shuningdek, ko'makchi fe'l sifatida ham qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu leksemalardan *gitmek, durmak, bilmek, kalmak* ko'makchi fe'llarining sermahsul, *yazmak, gelmek* so'zlarining esa kammahsul ekani aniqlandi.

8. *Kalmak* – "qolmoq" leksemasi eng faol yordamchi birliklardan biri bo'lib, u yetakchi fe'l ifodalagan harakatning natijaviy holatga aylanishi, mazkur holatning nutq vaziyatida davom etayotganligi va barqarorlik xususiyatini ifodalovchi yetakchi semantik vosita sifatida til tizimida faol qo'llanishi aniqlandi.

9. *Vermek* – "bermoq" fe'li yetakchi fe'l bildirib kelgan ish-harakatning tezda, bir zumda amalga oshishi, to'la va to'siqsiz bajarilishi, shuningdek, ayni harakat amalga oshirilishida me'yoriy holatdan kuchlilik, ortiqlikni bildirishi, harakatning davomiylik va yangi holatga o'tishi kabi ma'nolari kuzatildi. *Vermek* ko'makchi fe'li yetakchi fe'lning semantik yukini kuchaytiruvchi, uning tezlik, davomiylik yoki ortiqlik kabi qirralarini aniqlashtiruvchi birlik sifatida qo'llanishi aniqlandi.

10. Turk tilshunosligida to'liqsiz fe'llar o'zbek tilshunosligiga nisbatan alohida lingvistik hodisa sifatida izchil ilmiy talqinga ega. Ashyoviy materiallar tahliliga ko'ra, turk tilshunosligida *ise* to'liqsiz fe'li mustaqil hodisa sifatida talqin qilinadi va u fonetik jihatdan o'zbek tilidagi *esa* leksemasiga yaqin bo'lsa-da, semantik va funksional jihatdan *bo'lsa* shakliga muvofiq keladi. O'zbek tilidan farqli holda turk tilida *idi* to'liqsiz fe'lining qisqa shakllari otlar bilan ham, fe'llarning zamon yoki mayl shakllari bilan ham qo'llanishi kuzatildi. *İse* va *esa* leksemasi o'rtasida ham ma'no doirasida, ham qo'llanilishida katta farqlar bor. Turk tilidagi *ise* to'liqsiz fe'li o'zbek tilidagi *bo'lsa* shakliga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur birlik perifrastik-yoyiq shaklga mos keluvchi shartlilik va taxmin ma'nolarini ifodalashda ishtirok etishi aniqlandi.

11. *Değil* so'zi har jihatdan *imek* fe'lidan farq qilsa-da, semantik va funksional xususiyatlariga ko'ra to'liqsiz fe'llar tarkibida o'rganilishi zarur. Ushbu birlik inkor va bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalash bilan birga, gapda egallagan sintaktik o'rni va kontekstual qurshoviga ko'ra o'nga yaqin ma'noni ifodalashi aniqlandi.

12. Olib borilgan tadqiqotlar asosida turk tilidagi yordamchi fe'llar tizimi o'zining tarkibiy xilma-xilligi, semantik yuklamasi va kontekstga bog'liq ko'p qirraliligi bilan ajralib turishi kuzatildi. Turk tilidagi yordamchi fe'llar tizimi o'zbek tili bilan tipologik yaqinlikka ega bo'lsa-da, har bir fe'lning semantik-so'z yasovchi xususiyatlari, ko'p hollarda, o'zbek tilida kontekstual tarzda yoki kompleks sintaktik konstruktsiyalar yordamida ifodalanadi. Bu esa ularni tarjima qilish va o'rganishda qiyosiy yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12. 2019.Fil.21.01
AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

DAVLATOV ZOIRJON ZOKIRALIYEVICH

AUXILIARY VERBS IN TURKISH AND THEIR EXPRESSION
IN UZBEK

10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics and
Translation Studies

ABSTRACT
of dissertation for the degree of philosophy (PhD) on philological sciences

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation for the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under number B2023.2.PhD/Fil3478.

The dissertation has been carried out at the Tashkent State University of Oriental Studies.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuos.uz) and on the website Ziyonet information and educational portal website (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser:	**Sbabanov Jumali Kazimovich** PhD in Philology, Associate Professor
Official opponents:	**Dadboyev Xamidulla Aripovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Imamova Kholida Kamalovna PhD in Philology, Associate Professor
Leading organization:	**Institute of the Uzbek language, literature and folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**

The defense of dissertation will take place on « _29_ » _Novem_ 2025 at _12_ at the meeting of theScientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 at the Tashkent State University of Oriental Studies. (Address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Phone: (99871) 233-45-21; Fax: (99871) 233-52-24; e-mail: e-mail: info@tsuos.uz.).

The dissertation is available at the Information Resource Centre of the Tashkent State University of Oriental Studies (registered under the number № _108_). (The address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Phone: (99871) 233-45-21.)

Abstract of dissertation sent out on« _11_ » _Novem_ 2025.

(Protocol at the register № _108_ of « _11_ » _Novem_ 2025).

A.M. Mannonov
Chairman of the Scientific Council awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

N.R.Ismatullayeva
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Kh.Z. Alimova
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council for the award of scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. At a time when interest in learning the Turkish language is growing in global linguistics, studying its grammatical system – through a comparative analysis with Uzbek has become increasingly relevant. This topic holds significant scientific and practical importance, especially in the fields of translation studies, language teaching methodologies, and bilingual grammatical analysis. Although Turkish and Uzbek both belong to the Turkish language family from a genetic perspective, their grammatical systems exhibit notable differences, particularly in the formation and use of auxiliary verbs. These differences further underscore the need for a comparative linguistic study. A thorough scholarly investigation of this topic will help clearly identify the grammatical similarities and distinctions between the two languages and provide a scientific basis for resolving linguistic challenges encountered in translation processes.

The issue of auxiliary verbs in Turkish languages is one of the widely studied topics in global linguistics, encompassing grammatical, semantic, and stylistic aspects. Linguists around the world have sought to reveal the features of this type of verb through various perspectives, methodologies, and approaches. However, the expression of auxiliary verbs in the Turkish language through the lens of Uzbek has not yet been studied in a monographic format.

At the early stages of our country's development, mastering foreign languages thoroughly, in turn, creates opportunities to train highly qualified specialists and translators in this field. In turn, this contributes to strengthening the country's social, cultural, and economic ties with other nations. Therefore, studying and identifying the specific features of foreign languages, including Turkish, is of great importance. The phonetic, lexical, morphological, and syntactic features of the Turkish language have been the focus of special research by both Turkish and foreign linguists, particularly Russian Turkologists. Numerous monographs and scholarly works have been published in this area. In particular, lexical issues of the Turkish language have also been addressed in certain specialized studies. In recent years, a number of comparative studies have been carried out to examine the lexical, morphological, and syntactic features of Uzbek and Turkish. For instance, some research has compared the lexical-semantic characteristics of specific Turkish verbs with their Uzbek equivalents. However, there still remain many unresolved and insufficiently studied issues in this field. Among them are the lexical-semantic scope and grammatical features of auxiliary verbs in the Turkish language.

This research, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks set forth in the following legal and regulatory documents: Presidential Decree No. PF-5847 of October 8, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; Presidential Decree No. PF-5850 of October 21, 2019, "On Measures to Radically Increase the Status and Prestige of the Uzbek Language as the State Language"; Presidential Resolution No. PQ-5117 of May 19, 2021, "On Measures to Bring Activities for the Popularization of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a New Qualitative Stage"; Presidential Resolution No. PQ-307 of July 6, 2022, "On Organizational Measures for the Implementation of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan

for 2022–2026"; Presidential Resolution No. PQ-4680 of April 16, 2020, "On Measures to Radically Improve the System of Training Specialists in the Field of Oriental Studies and Enhance Scientific Capacity"; and Cabinet of Ministers Resolution No. 984 of December 12, 2019, "On the Approval of the Regulation on the Department for the Development of the State Language," along with other relevant legal and regulatory acts governing this field.

